

Koronavirus (COVID-19)

Ko'p so'raladigan savollar (KSS)

S: Kimlar virusni yuqtirib olish xavfi ostida bo'ladi?

COVID-19 virusi tarqalayotgan hududlarda yashovchi, ishlovchi yoki u yerlarga safar qiluvchi kishilar kasallikni yuqtirib olish xavfi ostidadir. Keksa yoshli va diabet hamda yurak kasalliklari kabi tibbiy holatlarda bo'lgan kishilar virus ta'siriga uchragan hollarda yuqoriroq xatar ostida bo'ladi.

S: Agar menga COVID-19 virusi yuqsa, menda qanday simptomlar bo'lishi mumkin?

Sizga COVID-19 virusi yuqqanidan 2 kundan 14 kungacha o'tganidan keyin sizda quyidagilar bo'lishi mumkin:

- istima
- yo'tal va/yoki nafas yetishmasligi

S: Qanday qilib virus yuqishining oldini olishim mumkin?

Hozirda COVID-19 virusiga qarshi hech qanday vaktsina mavjud emas. Virus tarqalishining oldini olish uchun:

- Kasal bo'lgan kishilar bilan yaqin muloqot qilmang.
- Agar kasal bo'lsangiz, uyda qoling.
- Yo'talganingizda yoki aksa urganingizda salfetka bilan og'zingizni berkiting yoki qo'lingiz/bilagingiz bilan berkitgan holda yo'taling/aksa uring.
- Foydalaniladigan buyumlar va yuzalarni tez-tez tozalab va dizenfeksiyalab turing.
- Yuzingiz, og'zingiz yoki ko'zlaringizni qo'l bilan ushlamang. Infeksiya mavjud bo'lgan yuzalarga tekkandan keyin ulardan birortasini ushlangiz, sizga virus yuqishi mumkin.

- CDC sog'lom kishilarning o'zlarini nafas yo'llari kasalliklari, jumladan COVID-19 dan himoya qilish uchun yuz maksasini kiyishlarini tavsiya qilmaydi. Yuz maksasini kasallikning boshqa kishilarga tarqalishining oldini olish uchun COVID-19 simptomlariga ega bo'lgan kishilar taqishlari kerak.
- Tez-tez, ayniqsa hojatxonaga kirganingizdan keyin, ovqatlanishdan avval; lift tugmalari va telefon kabi yuzalarga tekkandan keyin; va burningizni qoqqandan, yo'talgandan yoki aksa urgandan keyin qo'llaringizni suv va sovun bilan kamida 20 soniya yuving.
- Agar suv va sovun bo'lmasa, tarkibida kamida 60% spirt bo'lgan dizenfeksiyalovchi eritmadan foydalaning. Agar qo'llaringiz kir bo'lsa, uni sovun bilan yuving.

S: O'zimga COVID-19 ga ega bo'lgan kimdandir yuqtirib oldim shakilli. Nima qilishim kerak?

Agar sizda istima hamda yo'tal va nafas olishning qiyinlashishi kabi nafas yo'llari kasalligi simptomlari mavjud bo'lsa va COVID-19 bilan og'rikan bemor bilan yaqin muloqotda bo'lgan bo'lsangiz yoxud yaqinda ushbu kasallik tarqalayotgan hududga safar qilib qaytgan bo'lsangiz, shifokoringizga qo'ng'iroq qiling.

S: Qanday qilib bu to'g'risida ko'proq ma'lumot olishim mumkin?

- Asosiy shifokoringizga (ASh) qo'ng'iroq qiling
- **CDC.gov** manzildagi Kasalliklarni nazorat qilish va ularning oldini olish markazlari veb-saytiga tashrif buyuring va "**COVID-19**" deb qidiring.
- [UPMC.com](https://www.upmc.com) saytiga tashrif buyuring.



Ma'lumotlar CDC.gov va Healthwise, Inc. dan olingan. UPMC litsenziyasi asosida moslashtirilgan. Agar sizda tibbiy holat yoki bu yo'riqnomaga bo'yicha savollar bo'lsa, sizni qavolovchi tibbiyot xodimidan so'rang. Healthwise, Incorporated kompaniyasi sizning bu ma'lumotlardan foydalanish bo'yicha hech qanday kafolat yoki javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

Qayta buyurtma qilish uchun # UPMC-2541 PATEX_MS/BH 03/20 shakldan foydalaning © 2020 UPMC